



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “25” aprel

BUYRUQ № 55

Toshkent sh.

**“Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini
shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ni
tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, statistika sohasida nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2019- yil 28- iyundagi “Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 34- son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021-yil 25-noyabrda “Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin” to‘g‘risidagi 49-son qarori.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov